



# TOSHKENT VILOYATI CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil fevral*



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI




**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **4362** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **38** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4324** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning fevral oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **3 232,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning fevral oyiga nisbatan **102,8 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **573,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **139,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **840,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **95,0 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **305,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **90,2 %**) tashkil etdi.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>3 232,2</b>	<b>102,8</b>	<b>573,4</b>	<b>139,2</b>	<b>840,1</b>	<b>104,7</b>
Nurafshon shahar	70,6	98,6	24,4	56,9	28,6	281,4
Olmaliq shahar	289,4	101,1	47,9	168,9	31,4	97,9
Angren shahar	222,1	94,6	70,5	108,2	74,9	102,0
Bekabod shahar	169,2	100,1	24,9	134,9	49,4	118,4
Ohangaron shahar	70,9	98,2	1,7	103,2	34,9	108,0
Chirchiq shahar	170,0	100,6	52,0	152,2	41,6	74,8
Yangiyo'l shahar	222,7	97,4	19,9	174,3	24,7	174,7
Oqqo'rg'on t	116,2	85,7	2,4	92,4	25,6	419,1
Ohangaron t	36,6	106,3	8,7	2157,5	10,6	67,1
Bekabod t	66,8	81,1	10,6	348,3	9,9	99,2
Bo'stonliq t	204,5	108,1	47,5	137,1	24,0	97,8
Bo'ka t	109,2	112,4	9,8	236,2	10,4	83,5
Quyichirchiq t	56,3	110,5	3,0	102,3	11,5	161,6
Zangiota t	505,8	105,8	66,7	196,2	278,2	100,4
Yuqorichirchiq t	95,8	107,4	18,2	182,5	16,8	96,2
Qibray t	198,2	111,5	53,7	190,7	52,9	95,2
Parkent t	124,1	108,9	8,4	224,1	21,6	110,0
Piskent t	93,1	109,1	14,5	191,6	16,4	99,1
O'rtachirchiq t	54,6	102,6	1,3	9,0	32,5	117,6
Chinoz t	84,9	107,6	19,0	290,3	3,6	59,4
Yangiy'ol t	114,4	98,6	10,2	81,0	31,8	109,0
Toshkent t	156,8	121,8	58,1	128,1	8,5	49,2




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 840,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022–yilning fevral oyiga nisbatan **104,7 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **26,0 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning fevral oyiga nisbatan **39,2 %** ga o'sdi va **573,5 mlrd. so'mni** tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,7 %** ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha O'rtachirchiq (**59,5 %**), Zangiota (**55,0 %**) va Ohangaron shahar (**49,3 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **17,7 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent tumani (**37,0 %**), Nurafshon shahar (**34,5 %**), Angren shahar (**31,8 %**), Chirchiq shahar (**30,6 %**) hududlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1089,7</b>	<b>101,0</b>
Nurafshon sh	1322,0	96,2
Olmalik sh	2115,5	99,3
Angren	1258,3	92,6
Bekobod	1675,5	98,4
Ohangaron sh	1754,7	96,0
Chirchiq	1021,8	99,0
Yangiyo'l	2753,0	95,0
Oqqo'rg'on t	1063,8	84,2
Ohangaron t	338,2	104,5
Bekobod t	413,2	79,7
Bo'stonliq t	1175,6	106,9
Bo'ka t	831,2	110,4
Quyichirchiq t	497,9	108,4
Zangiota t	3023,3	105,9
Yuqori Chirchiq t	704,8	104,6
Qibray t	1148,1	110,0
Parkent t	714,5	107,0
Piskent t	892,6	107,5
O'rta Chirchiq	407,2	101,7
Chinoz t	602,8	105,2
Yangiyo'l t	588,3	94,8
Toshkent t	824,6	118,7

2023- yilning mart holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1089,7** ming. so'mni (2022- yilning mart oyiga nisbatan **114,4 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Zangiota tumani (**3023,3** ming. so'm), Yangiyo'l shahari (**2753,0** ming. so'm) va Olmalik shahar (**2115,5** ming. so'm) hududlari hissasiga to'g'ri keldi.

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>305,8</b>	<b>90,2</b>	<b>78,9</b>	<b>59,4</b>	<b>226,9</b>	<b>110,0</b>
Nurafshon sh	1,5	116,4	1,5	116,4	0,0	0
Olmaliq sh	16,2	73,9	5,8	62,0	10,4	82,9
Angren	0,7	4,7	0,7	4,7	0,0	0
Bekobod	10,3	37,7	10,3	37,7	0,0	0
Ohangaron sh	2,7	51,1	2,7	51,1	0,0	0
Chirchiq	6,3	103,2	6,3	103,2	0,0	0
Yangiyo'l	63,1	71,6	18,7	49,2	44,4	88,5
Oqqo'rg'on t	22,4	147,2	3,4	64,6	19,0	190,7
Ohangaron t	0,0	0	0,0	0	0,0	0
Bekobod t	2,7	11,8	0,0	0	2,7	11,8
Bo'stonliq t	53,5	119,5	1,7	111,9	51,8	119,8
Bo'ka t	29,4	443,4	11,3	0	18,1	272,6
Quyi Chirchiq t	13,7	123,5	0,3	15,0	13,4	146,1
Zangiota t	10,4	113,9	0,1	35,7	10,3	117,7
Yuqori Chirchiq t	3,4	182,4	3,4	182,4	0,0	0
Qibray t	15,3	113,3	0,0	0	15,3	113,3
Parkent t	18,9	157,3	8,9	174,6	10,0	144,5
Piskent t	22,1	118,9	0,7	14,1	21,4	156,7
O'rta Chirchiq t	0,0	0	0,0	0	0,0	0
Chinoz t	10,9	92,1	2,1	32,5	8,8	162,6
Yangiyo'l t	0,0	0	0,0	0	0,0	0
Toshkent t	2,0	40,1	0,8	41,0	1,2	39,4











\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning fevral oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **226,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **145,2** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **38,6** mlrd. so‘mni, otlar – **42,0** mlrd. so‘mni, parrandalar – **1,0** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	82,9
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	36,5
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	25,8
	Qo‘ylar	37,3
	Otlar	42,0
	Echkilar	1,3
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,9
	Tovuqlar	0,1
	Quyionlar	0,
	Qushlar	0,0

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **3545** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **14** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3531** tani tashkil qildi.

2023- yilning fevral oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi **4,7 %** ni tashkil etib, **151,0** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **98,4 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **79,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>151,0</b>	<b>98,4</b>	<b>31,1</b>	<b>117,9</b>	<b>96,7</b>	<b>93,0</b>
Nurafshon sh	5,2	93,2	0,0	0,0	4,7	92,7
Olmalik sh	26,8	98,1	18,9	99,8	6,3	92,9
Angren	13,3	111,3	2,1	2,m.	9,9	92,7
Bekobod	5,0	95,5	0,0	0,0	3,4	93,3
Ohangaron sh	7,3	92,8	4,4	92,3	2,5	92,8
Chirchiq	20,1	105,6	3,5	247,2	14,7	93,2
Yangiyo'l	5,4	94,7	0,0	0,0	4,1	93,1
Oqqo'rg'on t	1,3	98,0	0,0	0,0	0,4	92,9
Ohangaron t	1,4	94,8	0,0	0,0	0,9	92,5
Bekobod t	3,0	94,8	0,0	0,0	2,2	92,9
Bo'stonliq t	6,5	78,8	0,0	0,0	5,4	92,7
Bo'ka t	2,3	95,4	0,0	0,0	1,6	93,1
Quy Chirchiq t	2,1	95,0	0,0	0,0	1,6	93,0
Zangiota t	8,5	96,5	0,04	156,3	5,0	93,4
Yuqori Chirchiq t	5,8	93,9	0,0	0,0	5,1	93,0
Qibray t	13,5	93,4	0,0	0,0	12,6	92,9
Parkent t	3,3	95,3	0,0	0,0	2,3	93,1
Piskent t	1,5	95,1	0,0	0,0	1,0	92,9
O'rta Chirchiq t	4,1	93,7	0,0	0,0	3,6	92,9
Chinoz t	1,8	96,6	0,0	0,0	0,9	92,8
Yangiyo'l t	5,8	152,2	2,2	2,2m.	2,9	93,0
Toshkent t	7,0	94,7	0,0	0,0	5,6	93,3

**fevral 2023- yil**

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- mart holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **606,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **48,2 %** ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **245,3** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **28,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **18,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **101,5 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati eng yuqori hududlar, foizda



**fevral 2023- yil**

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>606,1</b>	<b>100,0</b>
Nurafshon sh	156,0	71,0
Olmaliq sh	1,8	103,3
Angren	56,7	59,3
Bekobod	1,1	3,2
Ohangaron sh	1,2	103,3
Chirchiq	20,7	48,5
Yangiyo'l	17,4	103,3
Oqqo'rg'on t	0,4	103,3
Ohangaron t	9,5	103,3
Bekobod t	4,8	102,1
Bo'stonliq t	2,8	100,0
Bo'ka t	0,2	103,3
Quyi Chirchiq t	8,3	68,5
Zangiota t	81,0	14,5
Yuqori Chirchiq t	26,7	74,7
Qibray t	19,6	42,2
Parkent t	5,5	101,9
Piskent t	0,2	103,3
O'rta Chirchiq t	2,6	103,3
Chinoz t	74,1	73,5
Yangiyo'l t	14,2	103,3
Toshkent t	101,0	194,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Nurafshon shahri (**156,0** mlrd. so'm), Toshkent (**101,0** mlrd. so'm) va Zangiota (**81,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Respublika bo‘yicha 2023- yilning fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2225,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **135,3 %** ga o‘ydi.



### Savdo aylanmasi ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1248,8** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **113,0 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **56,1 %** ni tashkil qildi.



# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK




Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qibray tumani (**795,6**), Toshkent tumani (**62,1**) va Parkent tumani (**29,1**) hududlarida kuzatildi.

2023- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **4362** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **38** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4324** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2318,2</b>	<b>128,9</b>	<b>1002,8</b>	<b>217,4</b>	<b>1315,4</b>	<b>98,3</b>
Nurafshon sh	49,0	93,9	26,3	72,4	22,6	141,7
Olmaliq sh	56,7	101,9	15,9	122,1	40,8	95,7
Angren	38,9	92,9	6,1	45,2	32,9	115,6
Bekobod	19,8	108,8	0,1	39,4	19,7	109,7
Ohangaron sh	123,8	97,5	24,0	78,7	99,8	103,5
Chirchiq	41,0	97,2	1,9	22,7	39,1	116,3
Yangiyo'l	46,7	102,6	0,0	-	46,7	102,6
Oqqo'rg'on t	1,1	97,2	0,0	-	1,0	98,4
Ohangaron t	25,5	97,8	0,1	75,8	25,3	97,9
Bekobod t	5,6	99,5	2,3	179,9	3,2	74,9
Bo'stonliq t	74,4	92,2	24,4	61,5	50,0	122,0
Bo'ka t	5,8	98,3	0,0	-	5,8	98,3
Quy Chirchiq t	22,3	102,9	0,0	-	22,2	103,1
Zangiota t	453,8	92,3	0,3	0,7	453,5	100,8
Yuqori Chirchiq t	49,4	98,2	0,3	9,9	49,4	98,7
Qibray t	871,4	230,5	795,6	319,0	75,8	58,9
Parkent t	34,4	329,2	29,1	29m.	5,3	50,6
Piskent t	9,1	97,8	0,0	36,8	9,1	97,9
O'rta Chirchiq t	53,8	96,0	13,9	56,7	39,9	126,5
Chinoz t	33,1	96,6	0,4	7,0	32,7	98,2
Yangiyo'l t	32,3	98,0	0,0	-	32,3	98,4
Toshkent t	270,4	127,1	62,1	4,9m.	208,3	98,5

fevral 2023- yil



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi**